

O‘ZBEKISTON – TOJIKISTON ALOQALARI*Tojiddinov To‘lanboy Begali o‘g‘li**(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti 304-guruh talabasi)**Abdullayev Begzodbek Xusniddin o‘g‘li**(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti o‘qituvchisi)*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonning mustaqillik yillarida Tojikiston bilan diplomatik aloqalarning o‘rnatilishi, to hozirgi kungacha ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy uchrashuvlar, shartnoma va bitimlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Respublikasi Majlisi Oliy, iqtisodiy taraqqiyot, Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi, rasmiy hokimiyati bilan muxolifat kuchlar, Ar-Riyod, Saudiya Arabistoni, Dushanbe va Toshkent aviaqatnov, sayyohlar oqimi, hisob-kitob to‘g‘risidagi bitimlar.

Abstract: This article describes the establishment of diplomatic relations with Tajikistan in the years of independence of Uzbekistan, political meetings, contracts and agreements between the two countries until now.

Key words: The Oliy Majlis of the Republic, economic development, the Senate and the Legislative Chamber of the Oliy Majlis, the official authorities and the opposition forces, Riyadh, Saudi Arabia, Dushanbe and Tashkent, agreements on air travel, the flow of tourists, settlement.

O‘zbekiston va Tojikiston xalqlari do‘stligi tarix, madaniy-ma’naviy meros va ajdodlarning ezgu an‘analari mushtarakligi, yaxshi qo‘shnichilik munosabatlariga asoslanadi. Aslida, o‘zbek va tojik bir daraxtning ikki shoxi, ikki daryoning bir irmog‘i, degan ta’riflar bejiz aytilmagan. Yorug‘ kunlarda ham, sinovli damlarda ham ikki xalq doimo yelkama-elka turgan, bir-birini qo‘llab-quvvatlab kelgan.

Ma’lumotlarga qaraganda, 1991-yildan buyon ikki mamlakat parlamentlari vakillarining 20 dan ortiq o‘zaro tashriflari amalga oshirilgan. Tojikiston Respublikasi Majlisi Oliy bilan hamkorlik qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasining parlamentlararo guruhlar tuzilgan.

Tojikistonda 1992–1996-yillarda davom etgan birodarkushlik urushi Tojikistonning iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta’sir etdi, uning qo‘shni mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston bilan hamkorligiga ham salbiy ta’sir etdi. 1997-yilda Moskvada Tojikistonning rasmiy hokimiyati bilan muxolifat kuchlar o‘rtasida tuzilgan milliy murosa haqidagi shartnomaga erishilgach, Tojikistonning qo‘shni mamlakatlar bilan aloqalari yana tiklandi. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning taklifiga binoan 1998-yil yanvarda Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon O‘zbekistonga amaliy tashrif bilan keldi. Ikki mamlakat rahbarlari tashrif yakunlari bo‘yicha qo‘shma

axborot imzoladilar. Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida yuk tashish hamda gaz yetkazib berish, Tojikistonning qarzi bo'yicha o'zaro hisob-kitob to'g'risidagi bitimlar ham imzolandi. O'zbekiston Tojikiston hududidan o'tgan transport kommunikatsiyalaridan foydalanmoqda. O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi ham yil sayin ortib bordi.

2017-yil O'zbekiston va Tojikiston munosabatlarida ham yangi sahifa ochildi. Shu yil may oyida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni poytaxti Ar-Riyod shahrida bo'lib o'tgan AQSh va arabmusulmon davlatlari sammitida ishtiroki doirasida Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon bilan ilk bor uchrashdi. Uchrashuv chog'ida ko'plab manfaatli kelishuvlarga erishildi. 2017-yilning aprelida 25 yillik tanaffusdan so'ng Dushanbe va Toshkent o'rtasidagi aviaqatnov yana tiklandi. 2017-yilda Toshkent-Dushanbe aviaqatnovlarining qayta yo'lga qo'yilishi, G'alaba-Amuzang temir yo'li barpo etilishi, Samarqand-Penjikent A-377 xalqaro yo'lining ochilishi, ikki davlat chegarasida 10 ta nazorat punktlari ish boshlagani quyida fikrimizning tasdig'idir. Ayniqsa, 2018-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Tojikistonga tashrifi muhim tarixiy voqea sifatida qayd etilib, unda o'zbek-tojik xalqlari o'rtasida yaxshi qo'shnichilik, do'stlik, birodarlik va o'zaro strategik sheriklik sohalaridagi munosabatlarda yangi sahifa ochildi. Shu o'rinda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ushbu iqtibosini keltirmoqchiman: «O'zbek va tojik xalqi bir daraxtning ikki shohi, bir daryoning ikki irmog'iga qiyosdir. Bizning dinimiz, yerimiz va suvimiz bir. Bir maqsad yo'lida birlashgan holda, quvonchu shodligimizda ham, qayg'uyimizda ham doimo birgamiz. Ajdodlar an'anasiga sodiq qolgan holda, xalqlarimiz o'rtasida do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va o'zaro hamkorlik aloqalarini yana-da mustahkamlamog'imiz darkor».

2018-yilda "O'zbekiston va Tojikiston fuqarolarining o'zaro sayohatlari to'g'risidagi" kelishuvning imzolanishi, davlatlarimiz o'rtasidagi yaqin hamkorlik aloqalarini yana-da mustahkamlanishida asos yaratib, millionlab fuqarolar hayotida yengillashtiruvchi misli ko'rilmagan tub burilish yasadi. Shu bilan bir qatorda, ushbu kelishuv yurtimizda sayyohlar oqimining keskin ko'payishi, qarindoshlik aloqalarining qayta tiklanishi va transchegaraviy savdo-sotiqni amalga oshirishga ulkan hissa qo'shdi. O'tgan yillar mobaynida, O'zbekistondan qo'shni Tojikistonga gaz yetkazib berish tizimi qayta yo'lga qo'yildi. Suv resurslaridan foydalanishdagi o'zaro manfaatli aloqalar qayta o'rnatildi. Mamlakatlarimiz rahbarlarining sa'y-harakatlari va savdo hajmini oshirish bo'yicha aniq belgilangan chora-tadbirlari tufayli, 2018-yilda 202,5 mln. dollarlik mahsulot yetkazib berish bo'yicha 92 ta shartnoma va kelishuvlar imzolandi. Jumladan, 2018-yil 9-10-mart kunlari O'zbekiston Prezidentining Tojikistonga davlat tashrifi amalga oshirilgan bo'lsa, aynan o'sha yili 17-18-avgust kunlari Tojikiston Prezidentining O'zbekistonga davlat tashrifi uyushtirildi.

2018-yil 27-28-sentyabr kunlari Prezidentimiz MDH Davlat rahbarlari kengashi sammiti doirasida, 2019-yil 14-15-iyun kunlari Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari yig'ilishida ishtirok etish maqsadida Tojikistonga amaliy tashrif bilan bordi. Shu bilan birga, Tojikiston Prezidenti 2019-yil 29-noyabr kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining ikkinchi maslahat uchrashuvida ishtirok etish uchun mamlakatimizga tashrif buyurdi.

2020-yilda Dushanbeda 1-marta Bosh vazirlar darajasidagi uchrashuvlar tashkil etildi. 2020-yilda O'zbekiston-Tojikiston biznes-forumi yakunlari bo'yicha yana 711,5 mln. dollarlik 306 ta hujjat tasdiqlandi. Shu tariqa, 2020-yilda ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aylanmasi hajmi \$ 500 mln. dan oshgani qayd etildi. Tojikistonda sanoat hamkorligi doirasida o'zbek mablag'i hisobidan 51 ta korxonalar tashkil etilgan bo'lsa, mahalliy aholi o'rtasida xaridorgir maishiy texnika ishlab chiqaradigan «Artel Avesto Electronics» qo'shma korxonasi shular jumlasidandir.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimanki, O'zbekiston va Tojikiston o'zaro faol siyosiy-iqtisodiy hamkorlikni saqlab qolish, rivojlantirish orqali kelgusida mintaqaviy hamkorlikning yetakchi a'zolariga aylanishi uchun yetarlicha salohiyatga egadir. Umumiy jihatlarini hisobga olgan holda, O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Начало рабочего визита в город Самарканд Республики Узбекистан [elektron manba] <https://mfa.tj/ru/main/view/10996/nachalo-rabohego-vizita-v-gorodsamarkand-respubliki-uzbekistan>
2. Совместное заявление Президента Республики Таджикистан Эмомали Рахмона и Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева [elektron manba] https://ifmr.uz/archives/central-asian-news/joint_statement
3. Шавкат Мирзиёев наградил Эмомали Рахмона орденом «Эл Юрт Хурмати» [elektron manba] <https://asiaplustj.info/ru/news/tajikistan/politics/20180818/shavkatmirziyoev-nagradil-emomali-rahmona-ordenom-el-yurt-hurmati>
4. A.V.Vaxabov D.A.Tadjibayeva Sh.X.Xadjibakiyeva Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar.- T.: Baktria press, 2015.
5. B. Sayfullayev “O'zbekiston respublikasi madaniy diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanishi” DSc) dissertatsiyasi Avtoreferati Toshkent –2020 5-b
6. Mansurbek Nemat O'g'li To'xсанov BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI VA O'ZBEKISTON HAMKORLIKNING USTUVOR YO'NALISHLARI // CARJIS. 2022. No
7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/birlashgan-millatlar-tashkiloti-va-o-zbekiston-hamkorlikning-ustuvor-yo-nalishlari> (дата обращения: 17.04.2023).